

JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



JIZZAX VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI (Dastlabki ma'lumotlar)

Jizzax viloyatining doimiy aholisi soni 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra **1457,7** ming kishini tashkil etib, yil boshidan **14,3** ming kishiga yoki **101,0** % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **684,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,9** %), qishloq aholisi soni **773,5** ming kishi (**53,1** %) ni tashkil etdi.

2022 yil 1-iyul holatiga doimiy aholisi soni
1457,7 ming kishi.





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan
yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi
(2022- yil yanvar-iyun oylarida, ming kishi)**

	2021 -yil	2022-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	1424,9	1457,7	102,3
Jizzax sh.	182,2	189,3	103,9
Arnasoy	46,9	47,6	101,5
Baxmal	161,1	164,6	102,2
G'allaorol	176,7	180,6	102,2
Sh. Rashidov	229,4	233,5	101,8
Do'stlik	67,0	68,2	101,8
Zomin	169,0	173,0	102,4
Zarbdor	89,1	91,3	102,5
Mirzacho'l	53,0	54,0	101,9
Zafarobod	51,0	52,1	102,2
Paxtakor	76,4	78,3	102,5
Forish	94,4	96,0	101,7
Yangiobod	28,7	29,2	101,7



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2022- yil 1- iyul holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 233,5 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,0 % ni) va Jizzax shahrida 189,3 ming kishini (13,0 %), aksincha eng kam aholi soni Yangiobod tumanida 29,2 ming kishini (2,0 %) va Arnasoy 47,6 ming kishi (3,3 %) tashkil etdi.



TUG'ILISH

2022- yilning yanvar-iyun oylarida 18,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,5 promilleni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,7 promillega kamaygan (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 26,2 promille bo'lgan).



Tug'ilish koeffitsiyenti 2021 - yilning mos davriga nisbatan Jizzax shahar (22,5 promilledan 30,2 promillega) va Mirzacho'l tumanida (17,7 promilledan 20,1 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Do'stlik tumanida (21,5 promilledan 20,7 promillega) va Forish tumanida (22,9 promilledan 22,3 promillega) kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2022-yil yanvar-iyun)

	2021 -yil	2022-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	18446	18330	99,4
Jizzax sh.	2024	2816	139,1
Arnasoy	521	506	97,1
Baxmal	2447	2140	87,5
G'allaorol	2457	2287	93,1
Sh. Rashidov	3185	2914	91,5
Do'stlik	713	698	97,9
Zomin	2507	2327	92,8
Zarbdor	1198	1184	98,8
Mirzacho'l	465	535	115,1
Zafarobod	633	615	97,2
Paxtakor	953	956	100,3
Forish	1068	1059	99,2
Yangiobod	275	293	106,5



TUG‘ILGANLAR SONI

Ma'lumot uchun! tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Qiz bola:

9,5 ming kishi

O‘g‘il bola:

8,8 ming kishi




2022- yilning yanvar-iyun oylarida 18,3 mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar 51,9 %, qiz bolalar 48,1 % ni tashkil etadi.



VAFOT ETGANLAR

2022- yilning yanvar-iyun oylarida 3,1 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko'paydi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 4,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2021- yilning mos davriga nisbatan oshgan Zomin tumanida (4,0 promilledan 6,3 promillega) kuzatildi.





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jizzax viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (2022-yil yanvar-iyun)


	2021 -yil	2022-yil*	O'sish sur'ati %
Jizzax viloyati	2780	3139	112,9
Jizzax sh.	362	318	87,8
Arnasoy	72	79	109,7
Baxmal	347	416	119,9
G'allaorol	382	489	128
Sh. Rashidov	444	305	68,7
Do'stlik	115	120	104,3
Zomin	333	539	161,9
Zarbdor	167	231	138,3
Mirzacho'l	90	115	127,8
Zafarobod	86	104	120,9
Paxtakor	133	167	125,6
Forish	197	199	101
Yangiobod	52	57	109,6



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2022- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 36,7 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,3 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 7,2 % i, o'simtalardan, 28,6 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,5 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 % i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,3 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)




2022- yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 15,2 ming kishini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,5 ming kishiga kamaygan, (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 15,7 ming kishi bo'lgan).



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 244 nafarni tashkil etib, ularning 13,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 58,6 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,1 % i tug'ma anomaliyalardan, 2,5 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,5 % i yuqumli va parazitlar kasalliklaridan va 20,4 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.


1 yoshgacha vafot etgan bolalarning asosiy o'lim sabablari bo'yicha taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2022- yilning yanvar-iyun oylarida 1 yoshgacha vafot etgan bolalar 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 11,8 promilleni tashkil etdi, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,6 promillega ko'paydi (2021- yilning yanvar-iyun oylarida 9,2 promille bo'lgan).



**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti
(2022-yil yanvar-iyun, ming birlik)**





JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aholi migratsiyasi (ming kishi)



2022- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,9 ming kishi bo'lib, 2021- yilning mos davrida minus 1,3 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)



	2021- yil yanvar-iyun	2022- yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	5,0	3,5
Ko'chib ketganlar	6,3	4,4
Migratsiya sa'ldosi	-1,3	-0,9

Migratsiya saldosini Baxmal (-0,3 ming kishi), G'allaorol (-0,2 ming kishi) va Forish (-0,2 ming kishi), Do'stlik (-0,1 ming kishi) tumanlarida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar soniga nisbatan sezilarli darajada balandligi kuzatildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Sh.Rashidov (3,0 ming kishi), Mirzacho'l (0,02 ming kishi) kuzatildi.

"Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi" (72) 221-51-19, (72) 222-81-39